



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “24” may

BUYRUQ № 111

Toshkent sh.

**“Transport xizmatlari eksport ko‘rsatkichlarini
shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, statistika sohasida transport xizmatlari eksport ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Transport xizmatlari eksport ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 29- martdagi “Transport xizmatlari eksport ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 11- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov